

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

## AL-BUKHARI

Scientific journal

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

## AL-BUKHARI

Scientific journal



**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Birinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

*Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)*

Bosh muharrir o‘rinbosari:

*Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor*

Mas’ul muharrir:

*Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

### “Al-Buxoriy”

#### ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durdona Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

## MUNDARIJA

### FILOLOGIYA

<b>Murtazo Saydumarov, Homid Abbos Xon</b> “Al-a’sho ko’chasidagi ishq qissalari” romanida an’ana va erkinlik o’rtasidagi ziddiyatlar .....	4
<b>Qurbonov Zayniddin Oltinovich, Oltinova Bahora Zayniddinovna</b> O‘zbek tilida frazeologizmlar etnosotsiopragmatik aspekt sifatida .....	17
<b>Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi</b> Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlari tadqiqi dolzarbligi xususida .....	25
<b>Adambayeva Nargiza Kadambayevna</b> Inglizabon tadqiqotlarda XIX asr Xorazm turkiy adabiy manbalari .....	34
<b>Xasanov Islombek Xasanboy o‘g‘li</b> Arab tilida uslubiyatning tarixiy shakllanishi .....	44
<b>Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich</b> Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va axloqiy normalarning ifodalanishi .....	57
<b>Xaydarova Munira O‘tkir qizi</b> Xiyazm stilistik vositasining nazariy asoslari.....	70

### TARIX

<b>Арипова Зухра Джахангировна</b> Система образования в медресе «султанья» в Египте .....	80
<b>Tayronov Yoqubjon Rapiqovich</b> XIX asr ikkinchi yarimida Turkistonda mahalliy tadbirkorlarning yangi avlodining shakllanishi .....	94
<b>Djurayev Ikrom Nematovich</b> Markaziy osiyoda qadimgi davr ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlari .....	105
<b>Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich</b> O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi: nazariy-metodologik yondashuvlar va akademik A.Asqarov qarashlari .....	115
<b>Kamolov Jahongir Mamasidiqovich</b> Piri Raisning dengizshunoslik asari “Bahriya” bo‘yicha tahlillar .....	125
<b>Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li</b> O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligi rivojlanishida moddiy madaniy merosning o‘rni .....	132
<b>Botirov Boburmirzo Mirodiljon o‘g‘li</b> Islom manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning tarixiy bosqichlari ...	143

**O‘ZBEKISTON VA YUNESKO HAMKORLIGI RIVOJLANISHIDA  
MODDIY MADANIY MEROSNING O‘RNI**

**THE ROLE OF TANGIBLE CULTURAL HERITAGE IN THE  
DEVELOPMENT OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND  
UNESCO**

**РОЛЬ МАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В  
РАЗВИТИИ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И  
ЮНЕСКО**

**Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li**

*Oriental universiteti o‘qituvchisi*

*Tel. +9981-470-66-09*

*E-mail: [beksattoroff123@gmail.com](mailto:beksattoroff123@gmail.com)*

*ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-7376-2421>*

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimiz tarixi, madaniyati, san‘ati hamda qadriyatlarining bir qismi bo‘lgan moddiy madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish hamda ularni asrab-avaylash borasida YUNESKO bilan faol hamkorlik aloqalari yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, barcha sohalarida bo‘lgani singari madaniy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilganligi, sohaga oid huquqiy tizim mustahkamlanganligi, qadimiy shaharlarimiz va u yerda joylashgan madaniy yodgorliklarning madaniy tashkilot hisoblanmish YUNESKOning turli ro‘yxatlari va dasturlariga kiritilishiga oid tadqiqotlar tahliliga qaratilgan. Mavzuni yoritishda ushbu sohaga oid tegishli me‘yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan.

**Kalit so‘zlar:** *YUNESKO, moddiy madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Tyan-Shan, Ipak yo‘li, Zarafshon, Ichan Qal‘a.*

**Annotation.** The article highlights active cooperation with UNESCO on the international promotion and preservation of tangible cultural heritage, which is part of our country’s history, culture, art, and values. This study focuses on the analysis of research on the implementation of fundamental reforms in the cultural sphere, as in all spheres after Uzbekistan gained independence, the strengthening of the legal system in this area, and the inclusion of our ancient cities and cultural monuments located there in various lists and programs of UNESCO, which is a cultural organization. Relevant regulatory documents, scientific research, literature, and periodical press materials related to this field were used in covering the topic.

**Keywords:** *UNESCO, tangible cultural heritage, intangible cultural heritage, Samarkand, Bukhara, Shakhrisabz, Khiva, Tien Shan, Silk Road, Zarafshan, Ichan Kala.*

**Аннотация.** В статье освещается активное сотрудничество с ЮНЕСКО в международном продвижении и сохранении материального культурного наследия, являющегося частью истории, культуры, искусства и ценностей нашей страны. В данном исследовании основное внимание уделяется анализу исследований о том, что после обретения Узбекистаном независимости, как и во всех сферах, в культурной сфере были проведены коренные реформы, укреплена правовая система в данной сфере, наши древние города и расположенные там памятники культуры включены в различные списки и программы ЮНЕСКО, являющейся культурной организацией. При освещении темы были использованы соответствующие нормативные документы, научные исследования, литература и материалы периодической печати.

**Ключевые слова:** ЮНЕСКО, материальное культурное наследие, нематериальное культурное наследие, Самарканд, Бухара, Шахрисабз, Хива, Тянь-Шань, Шелковый путь, Зарафшан, Ичан-Кала.

### KIRISH

Mustaqillikning ilk yillaridan O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga alohida e‘tibor qaratdi. Jumladan, 1993-yil 26-oktyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta‘lim, madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti YUNESKOga a‘zo bo‘ldi. Tashkilot bilan faol hamkorlik aloqalari rivojlanishi natijasida fan, ta‘lim, axborot-kommunikatsiya sohasidagi hamkorlik aloqalari bilan bir qatorda, madaniyat sohasi ham respublikamiz va tashkilotning asosiy hamkorlik yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu sohadagi hamkorlik aloqalari natijasida mamlakatimiz moddiy va nomoddiy madaniy merosi YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxati va “Nomoddiy madaniy merosning representativ” ro‘yxatiga kiritilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida Jahon merosi obyektlarini asrash va targ‘ib qilish bo‘yicha mustahkam hamkorlik aloqalari har qachongidan ham mustahkamlandi. Madaniyat, xususan, Jahon merosi obyektlarini asrash O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi bir necha o‘n yillardan beri davom etayotgan munosabatlarning muhim jihati bo‘lib kelmoqda.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo miqyosida umumbashariy qadriyat deb topilgan madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish va saqlash YUNESKOning madaniyat sohasidagi asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. YUNESKO tomonidan 1972-yil 16-noyabrda “Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (Саидова Л., 2004: 171-172) konvensiya qabul qilingan. Ushbu konvensiyaga a‘zo davlatlar o‘zlarining milliy hududlarida mavjud bo‘lgan tarixiy meroslar nomzodini Butunjahon

meroslar ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etishlari mumkin. 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga qo'shilgan.

Ushbu mavzu alohida tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmagan bo'lsa-da, qator tadqiqot ishlari, monografiyalar va maqolalarda ushbu mavzuga to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Rahimov M. va Abdimo'minov O. (2021), Asrorxo'jayeva M. (2024) tomonidan yozilgan monografiyalarida ushbu mavzuga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Mustaqillik yillarida respublikamizda madaniy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishga oid huquqiy tizim mustahkamlanib, qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan: 2019-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ-560) qabul qilindi. 2022-yil 15-fevralda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'RQ-754) qabul qilindi.

2019-yil 30-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi (VM 265) qarori, 2019-yil 3-martda qabul qilingan 119-sonli "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 4-oktyabrda "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi (VM 846) qarorini, 2021-yil 14-iyunda "YUNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 371-sonli qarorlari ushbu sohaga oid huquqiy tizimni mustahkamlaydi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada respublikamiz madaniy yodgorliklarining YUNESKO ro'yxatiga kiritilishi tarixiy asoslarini o'rganishda tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston va YUNESKO o'rtasida Jahon merosi obyektlarini asrash va targ'ib qilish bo'yicha mustahkam hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu hamkorlik aloqalari yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Madaniyat, xususan, Jahon merosi obyektlarini asrash O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi bir necha o'n yillardan beri davom etayotgan munosabatlarning muhim jihati bo'lib kelmoqda. Tashkilotning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga

mamlakatimiz madaniy yodgorliklarini kiritish bo'yicha hamkorlik respublikamiz mustaqillikka erishish arafasida boshlangan bo'lib, uning birinchi obyekt – "Ichan qal'a" 1990-yilda Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Mustaqillik yillarida respublikamizda ushbu ro'yxatga yana to'rtta madaniy va ikkita tabiiy obyektlar kiritildi.

YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan obyektlar uchun muayyan standartlar va boshqaruv mexanizmlari qo'llanadi. Jumladan, inshootlar va shaharsozlik strukturalarining asosiy prinsiplar bo'yicha konservatsiya nazorati, qurilish va infratuzilma loyihalarini tashkilot bilan kelishgan holda amalga oshirish, tarixiy hududlarda qat'iy ekologik-me'moriy xizmatlar qo'llanish zarurati. Bu esa amalda, tarixiy obidalarni saqlash, barqaror turizm va ekologik muvozanatni ta'minlashda asos bo'ladi.

YUNESKO ro'yxatiga kiritilish ilmiy izlanishlar va arxeologik tadqiqotlar uchun muhim bo'lib, xalqaro miqyosda hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. jumladan, ko'p tomonlama seminarlar, ekspert missiyalari, konferensiyalar hamda birgalikdagi tadqiqot loyihalarini orqali madaniyatshunoslik, tarix, arxeologiyani rivojlantirishga hissa qo'shadi. Masalan, tashkilotning maxsus ekspert guruhi davlatlardagi tarixiy shaharlarda tadqiqotlar olib boradi, mahalliy ekspertlar va xalqaro mutaxassislar bilan tajriba almashadi.

YUNESKO ro'yxatidagi obyektlar tarixiy shaharlar va hududlarda infratuzilma va xizmat sifatini oshiradi, xalqaro sayyohlar va investorlar e'tiborini tortadi, natijada, barqaror turizmni rivojlantirish, o'sha davlat iqtisodiyoti uchun yangi ish o'rinlari va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yaxshilashga yordam beradi. Bugungi kunda respublikamiz hududidagi jahon madaniyati namunalari durdonalari bo'lgan madaniy meros obyektlarini YUNESKOning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga va "Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ" ro'yxatiga kiritish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasidagi obyektlar yettita ([www.unesco.org](http://www.unesco.org)) bo'lib, ularning beshtasi madaniy va ikkitasi tabiiy obyektlardir.

Quyida mazkur obyektlar haqida to'xtalib o'tamiz:

1. 1990-yilda Xivadagi "Ichan qal'a" (<https://whc.unesco.org/en/list/543/>). Xiva shahrining Ichan qal'a qismi YUNESKOning (1990-yil dekabrda Kanadada bo'lib o'tgan 14-sessiyasida) Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. Tashkilot tomonidan "Ichan qal'a" alohida obidalar emas, yagona tarixiy shahar-majmua sifatida 1990-yilda ro'yxatga olingan bo'lib, majmua tarkibida 50 dan ortiq tarixiy-me'moriy obida mavjud bo'lib, ro'yxatda alohida me'moriy obidalar, shaharsozlik elementlari birgalikda kiritilgan. "Ichan qal'a masjidlar, maqbaralar, madrasalar, minoralar, ark va saroylar, mudofaa inshootlari, savdo inshootlari, ma'muriy majmualar hamda

an'anaviy turarjoylardan iborat yaxlit shahar-majmuani tashkil etadi". Respublikamizdan tashkilotning Umumjahon merosi ro'yxatiga birinchi bo'lib kiritilgan obyekt Ichan qal'a bo'lib, u mustaqillikka erishish arafasida ushbu ro'yxatga kiritilgan va keyingi obyektlarning mazkur ro'yxatga kiritilishini boshlab bergan obyekt desak mubolag'a bo'lmaydi.

2. 1993-yilda Buxoroning tarixiy markazi (<https://whc.unesco.org/en/list/602/>). Buxoro shahri tarixiy markazi YUNESKONing 1993-yil Kolumbiyada bo'lib o'tgan 17-sessiyasida Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. YUNESKO tashkiloti tomonidan Buxoro shahrining tarixiy markazini alohida binolar yig'indisi emas, yaxlit tarixiy shahar-majmua sifatida ro'yxatga olgan. "Buxoro shahrining tarixiy markazi masjidlar, madrasalar, maqbaralar, savdo inshootlari hamda an'anaviy turarjoylardan iborat yaxlit shahar-majmuani tashkil etadi". Buxoro shahrining tarixiy markazi tashkilotning ushbu ro'yxatiga mamlakatimiz mustaqilligi yillarida kiritilgan birinchi obyekt hisoblanadi. Umumiy hisobda esa ushbu ro'yxatdagi ikkinchisidir.

3. 2000-yilda Shahrisabz tarixiy markazi (<https://whc.unesco.org/en/list/885/>). 1999-yil 27-30-noyabr kunlari YUNESKONing Avstraliyada bo'lib o'tgan 24-sessiyasida Shahrisabz shahri va madaniy yodgorliklari YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Ushbu majmua Amir Temur va temuriylar davri shaharsozligi, me'morchiligi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob tarixiy makon hisoblanadi. "Shahrisabz tarixiy markazi saroylar, maqbaralar, masjidlar, ziyorat majmualari hamda an'anaviy shaharsozlik tuzilmasidan iborat yaxlit tarixiy ansamblni tashkil etadi. Mazkur ro'yxatga kiritilgan madaniy yodgorlikning bebaho va umuminsoniy qimmatga ega ekanligi e'tirof etiladi hamda insoniyat manfaati uchun himoya qilinishi zarurdir.

4. 2001-yilda Samarqand – madaniyatlar chorrahasi. Samarqand shahrining tarixiy markazi YUNESKONing 2001-yil Finlandiyada bo'lib o'tgan 25-sessiyasida Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. "Samarqand madaniyatlar chorrahasi masjidlar, madrasalar, maqbaralar, savdo inshootlari hamda an'anaviy turarjoylardan iborat yaxlit shahar-majmuani tashkil etadi". Samarqand madaniyatlar chorrahasi turli davrlar va sivilizatsiyalar me'morchiligi, shaharsozligi va madaniy qatlamlari uyg'unlashgan noyob tarixiy shahar-makon hisoblanib, tashkilotning ushbu ro'yxatiga kirgan. Samarqand – madaniyatlar chorrahasi Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan Ichan qal'a, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi kabi alohida berilgan nomzodnomasi hisoblanadi. Keyingi obyektlar qo'shni davlatlar bilan o'zaro mushtarak hamkorlik asosida ushbu ro'yxatga kiritilgan.

5. 2016-yilda G'arbiy Tyan-shan tabiiy hududi. O'n besh yillik tanaffusdan so'ng, 2016-yilda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston qo'shma nomzodligida G'arbiy Tyan-Shan tog'lari mazkur ro'yxatga kiritildi. U uchta qardosh va bir-biriga

chegaradosh mamlakatlar hamkorlik nomzodnomasi sifatida mazkur ro'yxatga kiritildi. O'zbekistonning YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlari orasida – G'arbiy Tyan-Shan hududi ro'yxatning aralash, ya'ni ikki yoki undan ortiq davlat hududida joylashgan Jahon merosi sifatida ro'yxatga kiritilgan. Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan har bir obyekt shu kundan boshlab, butun jahon merosi sifatida xalqaro darajada muhofaza etilishini bildiradi. Jahon merosiga egalik qiluvchi davlat ular muhofazasini turli omillarga qarshi kurashni xalqaro yordam bilan uyg'unlikda amalga oshirishi mumkin.

6. 2023-yilda “Turonning qishki sovuq sahrolari. YUNESKO Butunjahon merosi qo'mitasining 45-sessiyasida “Turonning qishki sovuq sahrolari” nominatsiyasini Umumjahon madaniy va tabiiy merosi ro'yxatiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi. Nominatsiya O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston tomonidan tayyorlangan. Nominatsiyaning o'zbek qismi Janubiy Ustyurt milliy tabiat bog'i va “Sayg'ochiy” qo'riqxonasi tomonidan taqdim etilgan. Sovuq qishki mo'tadil cho'llar noyob va keng ko'lamli biomlardan biridir. Turon cho'llarining geografik kengliklari juda katta bo'lganligi sababli, ekotizimlarning asosiy turlari va ekologik jarayonlarini, jumladan, o'ziga xos flora va faunani tasvirlash uchun mintaqalararo ketma-ket yondashuv zarurdir. Ishtirokchi davlatlar – O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning qo'shma nomzodnomasi YUNESKOning millatlararo mintaqaviy hamkorligining yorqin namunasidir.

7. 2023-yilda “Ipak yo'li: Zarafshon-Qoraqum koridori”. Ushbu nomzodnomaga kiritilgan barcha obidalar turli davrlarda bunyod etilgan bo'lib, tarixdagi eng muhim savdo yo'llaridan biri – Buyuk Ipak yo'lida joylashgan. Ular Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy-tarixiy merosi durdonalari hisoblanadi. Nomzodnoma O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda joylashgan jami 31 ta tarixiy obidani o'z ichiga oladi. Shulardan 15 tasi O'zbekiston, 9 tasi Tojikiston va 7 tasi Turkmaniston hududida joylashgan. O'zbekiston hududida joylashgan 15 obida, ya'ni Jartepa otashparastlar ibodatxonasi, Sulaymontepa, Kofirqal'a qo'rg'oni, Dabusiya qo'rg'oni, Qosim Shayx me'moriy majmuasi, Mirsaid Bahrom maqbarasi, Raboti Malik karvonsaroyi, Sardoba, Deggaron masjidi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Vardanze qo'rg'oni, Vobkent minorasi, Bahovuddin Naqshband me'moriy majmuasi, Chor Bakr nekropoli, Varaxsha qo'rg'oni, Poykent qo'rg'oni. 866 km uzunlikdagi Zarafshon-Qoraqum yo'lagi uchta mamlakatni kesib o'tadi. Mazkur madaniy meros obyekti YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatidagi eng yirik obidalardan hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li kesib o'tgan Markaziy Osiyoning mazkur qismi tog'lar, vodiylar va cho'llardan iborat. U bir necha asrlar davomida xalqlar va madaniyatlarni bog'lab kelgan hamda Markaziy Osiyoda g'oyalar hamda madaniy almashinuv chorrahasi bo'lib kelgan. Ro'yxatga kiritilgan obyektlarning asosiy qismi

O‘zbekistonda, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida joylashgan. Ushbu nomzodnomaning uchta qo‘shni davlat tomonidan taqdim etilishi va YUNESKO ro‘yxatiga kiritilishi ularning mushtarak hamkorligi natijasi hisoblanib, kelajakda ham tashkilotning Umumjahon merosi ro‘yxatiga hamkorlikda qo‘shma nomzodnomalar berishida muhim rol o‘ynashini ta’kidlab ketishimiz o‘rinlidir.

Respublikamiz madaniy yodgorliklarining YUNESKO ro‘yxatiga kiritilishi, bir tomondan, har bir yurtdoshimizga o‘z tarixiy o‘tmishi bilan faxrlanish tuyg‘usini baxsh etsa, ikkinchi tomondan ushbu obidalarni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga hamda kelajak avlodga asl holatida yetkazishga mas’uliyat bilan yondashishimiz zarurligini ko‘rsatib beradi.

1993-yil 3-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi, YUNESKO va JST vakillari bo‘lgan B.Leyn, E.D.Eriko, R.Lyukok, I.Vassalo, M.Erdiklar O‘zbekistonga ilk bor tashrif buyurib, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, ta’mir, foydalanish, turizmni rivojlantirish borasidagi ishlar bilan tanishib, yuqoridagi sohalarda hamkorlik qilish bo‘yicha o‘z takliflarini berishdi. 1996-yil iyun oyida O‘zbekiston hududidagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni YUNESKOning «Butunjahon tarixiy yodgorliklari» ro‘yxatiga kiritish uchun mamlakatimizdagi 22 ta tarixiy yodgorlik, 1999-yil avgustida esa Andijon viloyatidagi 3 ta, Buxoro viloyatidagi 23 ta, Qashqadaryo viloyatidagi 10 ta, Namangan viloyatidagi 6 ta, Navoiy viloyatidagi 4 ta, Samarqand viloyatidagi 16 ta, Surxondaryo viloyatidagi 6 ta, Toshkent viloyatidagi 5 ta, Farg‘ona viloyatidagi 5 ta, Xorazm viloyatidagi 20 ta, Qoraqolpog‘iston Respublikasidagi 3 ta, jami 101 ta tarixiy madaniy yodgorlik nomzod sifatida YUNESKOga yuborildi (Раҳимов.М, Абдимўминов.О., 2021: 226) Mazkur tarixiy madaniy yodgorliklardan (38 tasi 30.09.2025-yil holatiga ko‘ra turli yillarda YUNESKO tomonidan “Butunjahon tarixiy yodgorliklari” ro‘yxatiga dastlabki nomzod sifatida kiritildi.YUNESKO Jahon merosi dastlabki ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy-me’moriy yodgorlik va tarixiy joylar:

№	Tarixiy obida yoki joy nomi	Ro‘yxatga kiritilgan yili	Joylashgan joyi
1	Oq ostona bobo maqbarasi	01.06.1996.	Surxondaryo viloyati
2	Shayx Muxtor Vali majmuasi	01.06.1996.	Xorazm viloyati
3	Xonbandi to‘g‘oni	01.06.1996.	Navoiy viloyati
4	Abdullaxon bandi	18.01.2008.	Navoiy viloyati
5	Axsikent	18.01.2008.	Namangan viloyati
6	Qadimiy Pop	18.01.2008.	Namangan viloyati
7	Qadimiy Termiz	18.01.2008	Surxondaryo viloyati
8	Andijon	18.01.2008.	Andijon viloyati

9	Arab-Ota maqbarasi	18.01.2008.	Samarqand viloyati
10	Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
11	Chashmai Ayub maqbarasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
12	Chor Bakr majmuasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
13	Qadimiy Xorazm cho'l qal'alari.	18.01.2008.	Xorazm viloyati
14	Qo'qon tarixiy markazi	18.01.2008.	Farg'ona viloyati
15	Qanxa shahri	18.01.2008.	Toshkent viloyati
16	Hazorasp.	18.01.2008.	Xorazm viloyati
17	Vobkent minorasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
18	Mir Sayyid Bahrom maqbarasi	18.01.2008.	Navoiy viloyati
19	Poykent	18.01.2008.	Buxoro viloyati
20	Raboti Malik karvonsaroyi	18.01.2008.	Navoiy viloyati
21	Shohruhiya shahri	18.01.2008.	Toshkent viloyati
22	Siypon-tosh qoyatosh suratlari	18.01.2008.	Navoiy viloyati
23	Varaxsha	18.01.2008.	Buxoro viloyati
24	Zarautsoy qoyatosh suratlari	18.01.2008.	Surxondaryo viloyati
25	O'zbekiston Ipak yo'li shaharlari	19.02.2010.	O'zbekiston Respublikasi
26	Toshkent mahallalari	30.12.2021.	Toshkent shahri
27	Ipak yo'llari: Farg'ona-Sirdaryo korridori	31.01.2023.	O'zbekiston Respublikasi
28	Toshkent modernist arxitekturasi: Markaziy Osiyoda modernlik va an'ana	26.01.2024.	Toshkent shahri
29	Nurota tog'lari	30.10.2024.	Navoiy viloyati
30	Ko'hitang tog'lari	30.10.2024.	Surxondaryo viloyati
31	Boysun madaniy landshafti	30.10.2024.	Surxondaryo viloyati
32	Sarmishsoy qoya suratlari	30.10.2024.	Navoiy viloyati
33	Shohimardon tog'lari	30.10.2024.	Farg'ona viloyati
34	Hisor tog'lari	30.10.2024.	Surxondaryo viloyati
35	Zomin tog'lari	30.10.2024.	Jizzax viloyati
36	Ko'hitang karstlari, karvonlari va g'orlari	21.08.2025.	Surxondaryo viloyati
37	Orolbo'yi hududining qadimgi shaharlari va qal'alari	30.09.2025.	O'zbekiston Respublikasi
38	Chilpik – sukunat minorasi	30.09.2025.	O'zbekiston Respublikasi

YUNESKO rasmiy saytida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Jahon merosi dastlabki ro'yxatiga mamlakatimizdan turli yillarda 38 ta nomzodnoma kiritilgan bo'lib, ushbu nomzodnomalar 1996-yilda 3 ta, 2008-yilda 21 ta, 2010, 2021, 2023-yillarda 1 ta, 2024-yilda 8 ta, 2025-yilda 3 ta nomzodnoma kiritilgan. Bu nomzodnomalar keyingi yillarda tashkilot bilan olib borilayotgan faol hamkorlik natijasida Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi uchun dastlabki ro'yxatga kiritilgan.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizdagi Madaniy yodgorliklarning YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishining ahamiyati shundaki, ushbu ro'yxatga kiritilgan obyektning jahon miqyosidagi madaniy, tarixiy yoki ilmiy ahamiyatini xalqaro hamjamiyat tomonidan rasmiy tan olinishi hisoblanadi. Shuningdek, global tarixiy jarayonlar, madaniy almashinuv va etnik madaniy boyliklar kontekstida e'tirof etilishini anglatadi. Mamlakatimiz uchun milliy tarixni mustahkamlashda, mamlakatimizning muhim qadriyatlarini xalqaro madaniy dialogda aks ettirishda, xalqaro ilmiy hamkorlik va tadqiqotlar uchun poydevor yaratishiga yordam beradi. Madaniy yodgorliklarimizning YUNESKO ro'yxatlariga kiritilishi O'zbekiston boy tarixiy merosining xalqaro hamjamiyat tomonidan yanada kengroq e'tirof etilishiga xizmat qiladi, ushbu yodgorliklarning xalqaro miqyosda muhofaza qilinishini ta'minlash uchun asos bo'ladi. Shuningdek, kelgusida mamlakatimiz turizm salohiyatining keng miqyosda rivojlanishiga ham katta yo'l ochadi. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda madaniy yodgorliklar tarixini o'rganish, ularni saqlash va kelajak avlodga asl holatida yetkazish bugungi kunning qilinayotgan va qilinishi kerak bo'lgan muhim vazifalaridan hisoblanadi desak yanglishmaymiz.

Biz yuqoridagi tahlil va natijalar hamda xulosalarimizga tayanib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin bo'ladi:

YUNESKO bilan hamkorlikda moddiy madaniy meros obyektlarining monitoringi va konservatsiyasi bo'yicha milliy strategiyani yanada takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga (1972-yilgi Konvensiya va keyingi qo'shimcha protokollar) to'liq moslashtirish.

Dastlabki ro'yxatdagi nomzodnomalarni tezlashtirilgan tartibda tayyorlash va ularni transmilliy (qo'shma) nomzodnomalar shaklida (masalan, qo'shni davlatlar bilan birgalikda) taqdim etish orqali mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish.

Madaniy meros obyektlari atrofida barqaror turizm modellari (ekoturizm, madaniy turizm) yaratish va mahalliy jamoalarni jarayonga faol jalb qilish.

Ilmiy tadqiqotlar, arxeologik qazishmalar va raqamlashtirish loyihalarini YUNESKO grantlari va xalqaro ekspertlar ishtirokida kengaytirish.

Yosh olimlar va mutaxassislar uchun YUNESKO dasturlari (UNESCO Chairs, stipendiyalar) doirasida maxsus ta'lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. / Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. – Т.: Адолат, 2004.
2. 2019-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni O‘RQ-560-son. // <https://lex.uz/uz/docs/-4494508>
3. 2022-yil 15-fevralda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni O‘RQ-754-son. // <https://lex.uz/uz/docs/-5859901>
4. 2019-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 265-sonli qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/-4262171>
5. 2019-yil 3-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 119-sonli qarori.
6. 2019-yil 4-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/-4543266>
7. 2021-yil 14-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “YUNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 371-sonli qarori. // <https://lex.uz/uz/search/all?searchtitle=yunesko>
8. O‘zbekiston Respublikasidan YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilgan yodgorliklar ro‘yxati. // [www.unesco.org](http://www.unesco.org).
9. Ichan Qal‘a YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/543/>
10. Buxoro tarixiy markazining YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/602/>
11. Shahrisabz tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/885/>
12. Samarqand tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/603/>

## REFERENCES:

1. YUNESKO xalqaro meyoriy hujjatlari. / O‘zbekcha nashrining masul muharriri L.Saidova. – T.: Adolat, 2004. (In Uzbek)
2. 2019-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni O‘RQ-560-son. // <https://lex.uz/uz/docs/-4494508> (In Uzbek)
3. 2022-yil 15-fevralda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni O‘RQ-754-son. // <https://lex.uz/uz/docs/-5859901> (In Uzbek)
4. 2019-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 265-sonli qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/-4262171> (In Uzbek)
5. 2019-yil 3-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 119-sonli qarori. (In Uzbek)
6. 2019-yil 4-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/-4543266> (In Uzbek)
7. 2021-yil 14-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “YUNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 371-sonli qarori. // <https://lex.uz/uz/search/all?searchtitle=yunesko> (In Uzbek)
8. O‘zbekiston Respublikasidan YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiriritilgan yodgorliklar ro‘yxati. // [www.unesco.org](http://www.unesco.org). (In Uzbek)
9. Ichan Qal‘a YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/543/> (In Uzbek)
10. Buxoro tarixiy markazining YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/602/> (In Uzbek)
11. Shahrisabz tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/885/> (In Uzbek)
12. Samarqand tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // <https://whc.unesco.org/en/list/603/> (In Uzbek)

## Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

# AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**  
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**  
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.  
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: [al-buxoriy@orientaluniversity.uz](mailto:al-buxoriy@orientaluniversity.uz)

“AL-BUXORIY” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 17-fevral, 1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.